

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-fevral oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-fevral oylarida, birlikda)




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- mart holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **41,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**188**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**2711**

Ishlab chiqarish sanoati

**41**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**44**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 984 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 116,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 128,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 125,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**5,5** foizga oshdi




## Mikrofirkmalar



## Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 329 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 101,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 113,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 111,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,3 %) o'sishidir.




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

2021-yil 1- mart holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 669 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,7 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 34,6 % ga (jami savdodagi ulushi 70,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 12,4 % ga (jami savdodagi ulushi 21,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 42,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

388



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar


Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,6 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**10,4 foizga oshdi**



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



**91**

yashash bo'yicha xizmatlar




**1195**


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 286 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 10,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 8,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 1 780 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 633 ga yoki 55,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 643 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 545 ga yoki 49,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 99 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga yoki 2,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 13 942 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 912 ga yoki 26,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 299 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 588 taga yoki 24,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 644 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 143 taga yoki 28,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 168 tani tashkil etib, ulardan 164 tasi yoki 97,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 taga yoki 2,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>164</b>	<b>93</b>	<b>71</b>
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	6	4	2
Qo'ng'iro't	6	4	2
Qonliko'l	7	4	3
Mo'ynoq	31	22	9
Nukus	10	6	4
Taxiatosh	10	3	7
Taxtakopir	5	4	1
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	39	21	18


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,8 %), Mo'ynoq 31 ta (18,9 %), Qorao'zak, Taxiatosh, Nukus tumani va Beruniy 10 tadan (6,1 %), Qonliko'l tumanida 7 tani (4,3 %) tashkil etadi.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

17



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,3 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'iro't (5,7 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak va Kegeylida (2,9 %), Qonliko'l, Mo'ynoq va Shumanay (2,6 %), Taxtakopi'r (2,0 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalari to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,0 %), To'rtko'l (8,5 %), Ellikqal'a (7,7 %), Amudaryo (7,3 %), Nukus (6,5 %), Beruniy (6,4 %), Xo'jayli (6,3 %), Bo'zatov (5,0 %), Kegeyli (4,3 %), Qong'iro't va Chimboy (4,1 %), Taxiatosh (2,6 %), Qonliko'l (3,2 %), Shumanay (3,1 %), Mo'ynoq (2,3 %), Qorao'zak (2,1 %), Taxtakopi'r (1,5 %), tumanlari ulushiga tegishli.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,7 %), To'rtko'l (10,9 %), Beruniy (7,2 %), Amudaryo (6,6 %), Nukus (5,5 %), Qo'ng'iro't (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Ellikqal'a (4,1 %), Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,2 %), Kegeyli (3,0 %), Mo'ynoq (2,9 %), Taxiatosh (2,4 %), Shumanay va Bo'zatov (1,7 %), Qonliko'l (1,6 %), Taxtako'pir (1,1 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 61 224-92-09**